

**QISHLOQ XO‘JALIGINI MEXANIZATSIYALASH ILMIY-TADQIQOT
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.08/2025.27.12.T.13.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**QISHLOQ XO‘JALIGINI MEXANIZATSIYALASH
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

AMANOV AZAMAT KUSHNAZAROVICH

**INTENSIV BOG‘LARNING TURLI KENGLIKDAGI QATOR
ORALARIGA ISHLOV BERADIGAN QURILMA PARAMETRLARINI
ASOSLASH**

**05.07.01 – Qishloq xo‘jaligi va melioratsiya mashinalari. Qishloq xo‘jaligi va
melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление авторефера диссертации доктора
философии (PhD) по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of
philosophy (PhD) on technical sciences**

Amanov Azamat Kushnazarovich

Intensiv bog‘larning turli kenglikdagi qator oralariga ishlov beradigan qurilma parametrlarini asoslash.....	3
--	---

Аманов Азамат Кушназарович

Обоснование параметров устройства для обработки междурядий интенсивных садов различной ширины	19
---	----

Amanov Azamat Kushnazarovich

Justification of the parameters of a device for processing row spacings of various widths in intensive gardens.....	37
---	----

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....	41
------------------------------	----

**QISHLOQ XO‘JALIGINI MEXANIZATSIYALASH ILMIY-TADQIQOT
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.08/2025.27.12.T.13.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**QISHLOQ XO‘JALIGINI MEXANIZATSIYALASH
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

AMANOV AZAMAT KUSHNAZAROVICH

**INTENSIV BOG‘LARNING TURLI KENGLIKDAGI QATOR
ORALARIGA ISHLOV BERADIGAN QURILMA PARAMETRLARINI
ASOSLASH**

**05.07.01 – Qishloq xo‘jaligi va melioratsiya mashinalari. Qishloq xo‘jaligi va
melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/T4930 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqiot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.qxmiti.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Imomqulov Qutbiddin Boqijonovich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Tolibayev Alpisbay Yerjanbayevich
texnika fanlari doktori, katta ilmiy xodim

Ishmurodov Shuxrat Ulug'berdiyevich
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Guliston davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqiot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.08/2025.27.12.T.13.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil "29" 01 soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 110800, Toshkent viloyati, Yangiyo'l tumani, Gulbahor shaharchasi, Samarqand ko'chasi, 41-uy. Tel.: (+99855) 903-14-18, e-mail: qabulxona@qxmiti.uz).

Dissertatsiya bilan Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqiot instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (514 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 110800, Toshkent viloyati, Yangiyo'l tumani, Gulbahor shaharchasi, Samarqand ko'chasi, 41-uy. Tel.: (+99855) 903-14-18, e-mail: qabulxona@qxmiti.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "13" 09 kuni tarqatildi.
(2026-yil "13" 09 dagi 21 raqamli reestr bayonnomasi).



A. To'xtaqo'ziyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, texnika fanlari doktori, professor

B.P. Artikbayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, katta ilmiy xodim

R.R. Xudaykuliyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, texnika fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati. Jahonda mevali bog‘larni tashkil etish va ulardan yuqori hosil olishda energiya va resurstejamkor, ish unumi yuqori bo‘lgan va bog‘ qator oralariga talablar darajasida sifatli ishlov beradigan mashina va qurilmalarni ishlab chiqish va bog‘dorchilikda tadbiq qilish eng ustuvor vazifa hisoblanmoqda. Birlashgan millatlar tashkilotining ma‘lumotlariga ko‘ra jahon aholisi 1990-yilda 5,3 milliard, 2015-yilda 7,3 milliard kishini tashkil qilib, hozirgi vaqtga kelib 7,8 milliard kishini tashkil qiladi, 2050-yilga borib 9,7 milliard, 2100-yilda esa 11,2 milliard kishiga yetishi kutilmoqda¹. Shuning uchun dunyo aholisini ekologik sof meva mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini ta’minlash mamlakatlar oldida turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Jahonda bog‘ qator oralariga ishlov beradigan energiya va resurstejamkor, ish unumi yuqori va samarali bo‘lgan mashina hamda qurilmalarning konstruksiyalarini yaratish, bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini keng ko‘lamda olib borish hamda yaratilgan mashina va qurilmalarni ishlab chiqarish hamda ularni sohada qo‘llash yetakchi o‘rinni egallamoqda. Shuning uchun respublikaning tuproq-iqlim sharoitida intensiv bog‘ qator oralariga ishlov beradigan energiya va resurstejamkor, ish unumi yuqori bo‘lgan mashina va qurilmalarni ishlab chiqish, ularning texnologik ish jarayonlari va maqbul parametrlarini asoslash borasida maqsadli ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Jumladan, bog‘ qator oralariga ishlov berishda kam mehnat va resurs sarflab, barcha texnologik jarayonlarni sifatli bajarilishini ta’minlaydigan maqbul parametrlarga ega qurilmalarni ishlab chiqishga muhim ahamiyat berilmoqda.

Respublika qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida mehnat va energiya sarfini kamaytirish, resurslarni tejash, qishloq xo‘jalik ekinlarini ilg‘or texnologiyalar asosida yetishtirish va yuqori unumli qishloq xo‘jalik mashinalarini ishlab chiqish va qo‘llashga alohida e‘tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasida, jumladan, “...yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish, fermer xo‘jaliklarida mehnat unumdarligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash”² vazifalari belgilab berilgan. Yuqoridagi vazifalarni amalga oshirishda, jumladan, intensiv bog‘larning tuli kenglikdagi qator oralariga ishlov beradigan qurilmani texnologik va konstruktiv parametrlarini asoslagan holda, ishlab chiqish zarur hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi PF-5853-sonli “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni hamda 2019-yil 31-iyuldagagi PQ-4410-sonli “Qishloq xo‘jalik mashinasozligini jadal rivojlantirish, agrar sektorni qishloq xo‘jaligi texnikalari bilan ta’minlashni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi va

¹ <https://openknowledge.fao.org/server/api/core/bitsreams/9a0fc06-5c5b-4bd5-89eb-5dbec0f27274/cotent>.

² O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi PF-5853-son Farmoni.

2019-yil 20-martdagি PQ-4246-sonli “O‘zbekiston Respublikasida bog‘dorchilik va issiqxona xo‘jaligini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ma’lum darajada xizmat qiladi

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining II. “Energetika, energiya va resurstejamkorlik” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Bog‘ qator oralariga ishlov beradigan mashina va qurilmalarini ishlab chiqish, ular ish organlarining parametrlarini asoslash bo‘yicha xorijiy davlat olimlaridan O.Yildiz, A.Kose, M.Simon, A.Verjus, F.Rabatel, V.A.Shavkin, V.V.Richkov, V.N.Ojerelyev, V.V.Nikitin, P.M.Vasilenko, A.V.Alexin, N.I.Gerasimov, Y.Z.Jilitskiy, A.Y.Nesmiyan va boshqalar tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan.

O‘zbekiston sharoitida bog‘ qator oralari tuprog‘iga ishlov beradigan mashina va qurilmalar, ularning ish organlarini tadqiq etish ustida A.T.Musurmonov, X.B.Utaganov, T.T.Axmedov, X. Kushnazarov, X.Q.Pardayev, Q.B. Imomqulov, N.N.Nishonboyev, J.M.Xalilov va boshqalar tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan.

Amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar asosida bog‘ qator oralari tuprog‘iga ishlov beradigan diskli mashinalar, bog‘dorchilik plugi, bog‘ kultivatorlari, bog‘ qator oralari va tana atrofiga ishlov beradigan ish organlari ishlab chiqilgan hamda, ular bog‘dorchilikda ijobiy yutuqlarga erishilgan holda qo‘llanilib kelinmoqda. Ammo, o‘tkazilgan ilmiy izlanishlarda mahalliy iqlim sharoitini hisobga olib tashkil etilgan intensiv bog‘larning turli kenglikdagi qator oralariga ishlov beradigan qurilma (keyingi o‘rinlarda qurilma)ning konstruktiv sxemasini ishlab chiqish, ish organlarining parametrlari va ish jarayonlarini asoslash masalalari yetarli darajada o‘rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejali bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti “Bog‘dorchilik va sabzavotchilikni mexanizatsiyalash” laboratoriyasining tadqiqotlar rejasi doirasida “Turli sxemadagi intensiv bog‘ qator oralariga moslashuvchan tuproqqa ishlov beradigan universal qurilma ishlab chiqish” mavzusi bo‘yicha bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi intensiv bog‘larning turli kenglikdagi qator oralariga ishlov beradigan energiya-resurstejamkor qurilmani ishlab chiqish va parametrlarini asoslash orqali bog‘ qatorlari oralariga ishlov berishda ish sifati va unumini oshirish hamda moddiy xarajatlarni kamaytirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari. Qo‘yilgan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

Bog‘ qator oralariga ishlov beradigan mashina va qurilmalarga doir bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini o‘rganish;

turli kenglikdagi bog‘ qator oralariga ishlov beradigan qurilmaning konstruktiv sxemasini ishlab chiqish;

qurilma ishchi qismlarining tuproq bilan o‘zaro ta’sirlashish jarayonlarini tadqiq etish va shu asosida ularning parametlarini asoslash imkonini beradigan analitik bog‘lanishlarni keltirib chiqarish;

qurilma ishchi qismlarining parametrлari va agregat harakat tezligini uning agrotexnik va energetik ish ko‘rsatkichlariga ta’sirini o‘rganish hamda ularning maqbul qiymatlarini aniqlash bo‘yicha tajribaviy tadqiqotlar o‘tkazish;

asoslangan texnologik ish jarayoni, konstruktiv sxema va parametrлar bo‘yicha intensiv bog‘larning turli kenglikdagi qator oralariga ishlov beradigan qurilmaning tajriba nusxasini ishlab chiqish;

asoslangan parametlarga ega bo‘lgan qurilmaning dala sinovlari natijalarini agrotexnika talablarga mosligini aniqlash va iqtisodiy samarasini baholash.

Tadqiqotning obyekti sifatida intensiv bog‘larning turli kenglikdagi qator oralariga ishlov beradigan qurilmaning ish organlari va uning texnologik ish jarayoni olingan.

Tadqiqotning predmeti intensiv bog‘larning turli kenglikdagi qator oralariga ishlov beradigan qurilma ish organlarining tuproq bilan o‘zaro ta’sirlashish jarayonlarini ifodalaydigan analitik bog‘lanishlar va matematik modellar hamda uning agrotexnik va energetik ish ko‘rsatkichlarini ish organlarining parametrлari va agregat harakat tezligiga bog‘liq ravishda o‘zgarish qonuniyatlaridan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida nazariy tadqiqotlar nazariy mexanika va oliy matematikaning qonun va qoidalaridan, tajribaviy tadqiqotlar esa tajribalarni matematik rejalshtirish va tenzometriya usullari, ГОСТ Р 53056-2008 “Методы экономической оценки”, О‘з DSt 3193:2017 “Qishloq xo‘jalik texnikalarini sinash. Mashinalarni energetik baholash usuli”, ГОСТ 20915-2011 “Испытания сельскохозяйственной техники. Методы определения условий испытаний”, О‘з DSt 3236:2017 “Bog‘dorchilikda tuproqqa ishlov beruvchi mashina va ish qurollari. Sinov usullari”, О‘з DSt 3412:2019. “Qishloq xo‘jalik texnikalarini sinash. Tuproq yuzasiga ishlov beruvchi mashina va quollar. Sinov dasturi va usullari”, Уз РД 63.03-98 “Испытания сельскохозяйственной техники. Методы расчета экономической эффективности испытываемой сельскохозяйственной техники” kabi me’yoriy hujjatlardan foydalanib o‘tkazilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

qurilmaning texnologik ish jarayoni va uning konstruktiv sxemasi intensiv bog‘larning turli kenglikdagi qator oralariga ishlov berish ta’milanishi hisobga olinib ishlab chiqilgan;

qurilmaning birinchi va ikkinchi qatorlarida joylashgan sferik diskлari orasidagi ko‘ndalang masofalar egat tubida ishlov berilmay qolgan bo‘ylama notekisliklarning balandligi ruxsat etilgan qiymatdan katta bo‘lmasligini hisobga olgan holda aniqlangan;

qurilma sferik diskлari orasidagi bo‘ylama masofa birinchi va ikkinchi qatorda joylashgan sferik diskлar orasiga tuproq tigilmaslikligi shartidan kelib chiqib asoslangan;

qurilmaning bitta qatorda joylashgan ish organlari orasidagi ko‘ndalang masofa, birinchi va ikkinchi qatorda joylashgan ish organlari orasidagi bo‘ylama masofa, ularning tikka va harakat yo‘nalishiga nisbatan o‘rnatalish burchaklarining maqbul qiymatlari agregat harakat tezligi uning agrotexnik va energetik ish ko‘rsatkichlarini baholaydigan regressiya tenglamalarini bирgalikda yechish orqali talablar darajasidagi ish sifati kam energiya sarflab ta’minlanishi shartidan aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

intensiv bog‘larning turli kenglikdagi qator oralariga ishlov beradigan qurilma ishlab chiqilgan va uning sferik diskli ish organlarini parametrlari asoslangan;

asoslangan parametrlarga ega bo‘lgan qurilma bog‘dorchilik fermer xo‘jaligi dala maydonlarida qo‘llanilganda moddiy va energetik resurslar sarfini kamayishi ta’minlagan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotlar samarali usul va o‘lchov vositalaridan foydalangan holda o‘tkazilganligi, qurilmaning parametrlarini nazariy asoslashda oliy matematika, nazariy mexanikaning asosiy qoidalariga amal qilinganligi, dala tajribalaridan olingan natijalarga matematik statistika usullari bilan ishlov berilganligi, nazariy va amaliy tadqiqotlar natijalarining o‘zaro mosligi, tadqiqotlar natijasida ishlab chiqilgan qurilmaning dala sinovlarining ijobiy natijalari va uni amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati intensiv bog‘larning turli kenglikdagi qator oralariga ishlov beradigan energiya-resurstejamkor qurilma ishlab chiqilganligi va uning talablar darajasida ish sifatini kam energiya sarflagan holda ta’minlaydigan parametrlari asoslanganligi hamda olingan analitik bog‘lanishlardan boshqa shunga o‘xshash ish organlarining parametrlarini tadqiq etishda qo‘llash mumkinligi bilan izohlanadi.

Olingan natijalarning amaliy ahamiyati asoslangan parametrlarga ega bo‘lgan qurilma qo‘llanilganda bog‘ qator oralariga ishlov berishda mehnat sarfi, eksplyatatsion va moddiy harajatlar kamayishiga erishilganligi bilan izohlanadi

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Intensiv bog‘larning turli kenglikdagi qator oralariga ishlov beradigan qurilma parametrlarini asoslash bo‘yicha olingan natijalar asosida:

turli kenglikdagi intensiv bog‘larning qator oralariga ishlov beradigan qurilmaga texnik hujjatlar (dastlabki talablar, texnik topshiriq va chizmalar) ishlab chiqilgan (Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025-yil 30-maydagi №05/05/02-05/04-03-226-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, intensiv bog‘larning turli kenglikdagi qator oralariga ishlov beradigan diskli qurilmaning konstruksiyasini ishlab chiqish imkonini yaratilgan;

intensiv bog‘larning turli kenglikdagi qator oralariga ishlov beradigan qurilmaning tajriba nusxasi Toshkent viloyatining Yangiyo‘l tumanidagi “Toshkent meva” MCHJ va “Sayyotxon Mushtariy bog‘i” bog‘dorchilik fermer xo‘jaliklarida joriy etilgan (Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025-yil 30-maydagi №05/05/02-05/04-03-226-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, qurilmadan bog‘ qator oralariga ishlov berishda

qamrash kengligi 2,5 m holatida foydalanilganda, bir gektarga sarflanadigan ekspluatatsion harajatlar 16,4 foizga va mehnat sarfi 9,1 foizga, qamrash kengligi 3,0 m holatida foydalanilganda bir gektarga sarflanadigan ekspluatatsion xarajatlar 37,5 foiz, mehnat sarfi 10,4 foizga kamaygan;

qurilmaning texnik hujjatlari (dastlabki talablar, texnik topshiriq va chizmalar) “Andijontexmash” MCHJ ning ishlab chiqarish jarayoniga joriy etilgan (Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025-yil 30-maydagi №05/05/02-05/04-03-226-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, intensiv bog‘larning turli kenglikdagi qator oralariga ishlov beradigan qurilmani ishlab chiqarish imkoniyatiga yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o’tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 10 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalari chop etish tavsiya etilgan nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 3 ta respublika, va 1 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 104 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiyaning dolzarbliji va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, obyekti va predmetlari tavsiflangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi va dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejali bilan bog‘liqligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot usullari, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, ishning aprobasiya natijalari, e’lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Masalaning qo‘yilishi. Tadqiqot ishining maqsadi va vazifalari**” deb nomlangan birinchi bobida respublikada intensiv bog‘larning rivojlantirish istiqbollari, bog‘ qator oralariga ishlov berishda qo‘llaniladigan texnologiyalar va texnika vositalari hamda mavjud qurilma va mashinalar bo‘yicha umumiy ma’lumotlar hamda mavzu bo‘yicha O‘zbekistonda va xorijda bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlari tahlil etilgan, ular asosida tadqiqotning maqsadi va vazifalari shakllantirilgan.

Dissertatsiyaning “**O’tkazilgan nazariy tadqiqotlarning natijalari**” deb nomlangan ikkinchi bobida intensiv bog‘larning turli kenglikdagi qator oralariga ishlov beradigan qurilmaning konstruktiv sxemasi ishlab chiqilgan.

Intensiv bog‘larning turli kenglikdagi qator oralariga ishlov beradigan qurilma osish moslamasi 1, asosiy rama 2, o‘ng va chap parallelogramm ramalar 3 va 4, sharnir 5, old qatordagi sferik disklar 6, orqa qatordagi tekis sirtli sferik disklar 7,


asosiy ramaga nisbatan chap va o'ng parallelogramm ramalarni o'rnatalish burchagini o'zgartiradigan tortqi 8, o'qyoysimon panja 9, sferik disklarni harakat yo'naliishiga nisbatan o'rnatalish burchagini o'zgarmasligini ta'minlaydigan mexanizm 10 lardan tashkil topgan. Intensiv bog' qator oralariga ishlov berishda ularning qamrash kengligiga qarab, himoya zonasini e'tiborga olgan holda qurilmaning qamrash kengligi sozlanadi.

Bunda o'ng va chap parallelogramm ramalar asosiy rama 2 ga nisbatan tortqi 8 orqali ma'lum burchakka buriladi.

Qurilmaning qamrash kengligi o'zgarishi bilan har ikkala qatorda joylashgan sferik disklarni harakat yo'naliishiga nisbatan o'rnatalish burchagini o'zgartirmasligini ta'minlaydigan mexanizm 10 yordamida ularni hujum burchagi o'zgarmasdan qoladi, sferik disklar orasidagi ko'ndalang masofa esa qisman kamayadi.


Birinchi qatorda joylashgan diskli ish organlari begona o'tlarni qirqib, tuproqqa ishlov berib, uni asosiy rama 2 tomonga suradi. Qurilmani markazida joylashgan o'qyoysimon panja 9 sferik disklar tomonidan ishlov berilmay qolgan tuproqqa ishlov beradi. Ikkinci qatordagi diskli ish organlari asosiy rama 2 tomonga surilgan tuproqlarni qayta dala yuzasi bo'ylab teng taqsimlanishini ta'minlaydi. Natijada, intensiv bog' qator oralarini sifatli yumshatilishi va begona o'tlarni yo'qotilishiga erishiladi.

2-rasmda qurilmaning ish ko'rsatkichlariga ta'sir etadigan asosiy parametrlari tasvirlangan. Bunda b_n – yassi kesadigan ish organining qamrash kengligi, m; ψ – asosiy ramaga nisbatan chap va o'ng parallelogramm ramalarni o'rnatalish burchagi, °; a_1 – bitta qatorda joylashgan sferik disklar orasidagi ko'ndalang masofa, m;




1-rasm. Qurilmaning yuqoridan (a) va yondan (b) ko'rinishi sxemalari


A-ko'rinish buralgan



2-rasm Qurilmaning asosiy parametrlari



S – sferik diskler orasidagi bo‘ylama masofa, m; b_1 – birinchi va ikkinchi qatorda joylashgan sferik diskler orasidagi ko‘ndalang masofa, m; d – sferik diskning diametri, m; R – sferik diskning egrilik radus, m; β – sferik diskning tikka nisbatan o‘rnatilish burchagi, °; α – sferik diskning harakat yo‘nalishiga nisbatan o‘rnatilish burchagi, °; e – old qator markazidagi simmetrik sferik diskler orasidagi ko‘ndalang masofa, m; l – asosiy ramaning bo‘ylama bruslari orasidagi ko‘ndalang masofa, m; L_1 – parallelogramm rama orqangi ko‘ndalang brusining uzunligi, m; L_2 – parallelogramm ramani oldingi ko‘ndalang brusini uzunligi, m.



3-rasm. Qurilma sferik diskining diametrini aniqlashga doir sxema

$$d > \left[2h(1 + \tan^2 \varepsilon) + d_k \right] + \sqrt{\left[2h(1 + \tan^2 \varepsilon) + d_k \right]^2 - \left[(2h + d_k)^2 + 4h^2 \tan^2 \varepsilon \right]}, \quad (1)$$

bunda h – ishlov berish chuqurligi, m; d_k – sferik disk o‘qi va podshipniklari o‘rnatilgan korpusning diametri, m; ε – tuproqni sferik disk sirti bo‘yicha ko‘tarilish burchagi, ° (3-rasm).

(1) ifoda bo‘yicha qurilma sferik diskining diametri ishlov berish chuqurligiga, uning o‘qi va podshipniklar o‘rnatiladigan korpusning diametri va tuproqni sferik diskning ishchi sirti bo‘ylab ko‘tarilish burchagiga bog‘liq.

$h=12$ cm, $\varepsilon=20^\circ$ va $d_k=10$ cm qabul qilib, (1) ifoda bo‘yicha qurilma sferik diskining diametri kamida 49,6 cm bo‘lishi lozimligini aniqlaymiz.

Qurilma sferik diskining egrilik radiusini quyidagi ifoda bo‘yicha aniqlaymiz

$$R \geq \frac{1}{2 \sin \varphi} \left\{ \left[2h(1 + \tan^2 \varepsilon) + d_k \right] + \sqrt{\left[2h(1 + \tan^2 \varepsilon) + d_k \right]^2 - \left[(2h + d_k)^2 + 4h^2 \tan^2 \varepsilon \right]} \right\}, \quad (2)$$

bunda φ – diskning diametral kesimidagi markaziy burchakning yarmi, ° $\varphi = 25^\circ$ qabul qilib va h , ε , d_k ning yuqorida keltirilgan qiymatlarini qo‘yib, (2) ifoda bo‘yicha qurilmaning sferik diskining egrilik radiusi kamida 58,7 cm bo‘lish lozimligini aniqlaymiz.

O‘tkazilgan hisoblashlar asosida qurilmaga o‘rnatish uchun ГОСТ 198-75 bo‘yicha diametri 51 cm va egrilik radiusi 60 cm bo‘lgan sferik disklarni qabul qilamiz.

Birinchi va ikkinchi qatorda joylashgan sferik diskler orasidagi ko‘ndalang masofa b_1 ni ular orasida ishlov berilmay qoladigan bo‘ylama notekislik (o‘rkach)larning balandligi Δh ruxsat etilgan qiymat [Δh] dan katta bo‘lmasligi shartidan kelib chiqib, quyidagi ifoda bo‘yicha aniqlaymiz

Qurilma sferik diskining harakat yo‘nalishi α va tikka nisbatan β o‘rnatilish burchaklarini R.S.Nartov, G.N.Sineokov, I.M.Panovlar tomonidan bajarilgan tadqiqotlarga asosan mos ravishda, $25-35^\circ$ va $15-20^\circ$ oralig‘ida qabul qilamiz. Bunda bog‘qatorlari oralariga kam energiya sarflab talablar darajasida ishlov berilishiga erishilinadi.

Qurilma sferik diskining diametri(d)ni qurilma ishlov berish chuqurligining ma’lum qiymati bo‘yicha 3-rasmda tasvirlangan sxemadan foydalananib aniqlaymiz. Unga asosan

$$b_1 \geq \frac{1}{c} \left\{ b \left\{ \frac{\sqrt{q}}{2a} \left[b^2 \sqrt{\frac{1}{(4ac-b^2)c}} + \sqrt{4a - \frac{b^2}{c}} \right] - [\Delta h] \right\} - \left\{ 4cq - (4ac-b^2) \left\{ \frac{\sqrt{q}}{2a} \left[b^2 \sqrt{\frac{1}{(4ac-b^2)c}} + \sqrt{4a - \frac{b^2}{c}} \right] - [\Delta h] \right\}^2 \right\}^{\frac{1}{2}} \right\}, \quad (3)$$

bunda $c = \cos^2 \gamma + \sin^2 \gamma \cos^2 \beta \sin^2 \alpha$; $b = \sin 2\gamma (1 - \cos^2 \beta \cos^2 \alpha)$;
 $q = 0,25D^2 \cos^2 \beta \sin^2 \alpha$; $a = \sin^2 \gamma + \cos^2 \gamma \cos^2 \beta \sin^2 \alpha$; $\gamma = \arctg(\tg \beta / \cos \alpha)$.

Bitta qatorda joylashgan sferik disklar orasidagi ko‘ndalang masofani ular tomonidan ishlov berilayotgan qatlam to‘liq yumshatilishi shartidan kelib chiqib, quyidagi ifodadan foydalanib aniqlaymiz

$$a_1 \leq d \sin \arctg \left(\frac{\tg \beta}{\cos \alpha} \right) - \frac{1}{c} \left\{ b \left\{ \frac{\sqrt{q}}{2a} \left[b^2 \sqrt{\frac{1}{(4ac-b^2)c}} + \sqrt{4a - \frac{b^2}{c}} \right] - [\Delta h] \right\} - \left\{ 4cq - (4ac-b^2) \left\{ \frac{\sqrt{q}}{2a} \left[b^2 \sqrt{\frac{1}{(4ac-b^2)c}} + \sqrt{4a - \frac{b^2}{c}} \right] - [\Delta h] \right\}^2 \right\}^{\frac{1}{2}} \right\} + h \cos(\alpha + \varphi_1) : \left[\cos \varphi_1 \cos \frac{1}{2} \left(90^\circ - \arccos \frac{\sqrt{R^2 - 0,25d^2}}{R} - \beta + \varphi_1 + \varphi_2 \right) \right], \quad (4)$$

bunda φ_1, φ_2 – mos ravishda tuproqning tashqi va ichki ishqalanish burchaklari, $^\circ$.

Parallelogramm ramalarning asosiy ramaga nisbatan o‘rnatilish burchagi ψ o‘zgarganda bitta qatorda joylashgan sferik disklar orasidagi ko‘ndalang masofa o‘zgaradi va uni quyidagicha ifodalash mumkin

$$a_2 \leq \left\{ d \sin \arctg \left(\frac{\tg \beta}{\cos \alpha} \right) - \frac{1}{c} \left\{ b \left\{ \frac{\sqrt{q}}{2a} \left[b^2 \sqrt{\frac{1}{(4ac-b^2)c}} + \sqrt{4a - \frac{b^2}{c}} \right] - [\Delta h] \right\} - \left\{ 4cq - (4ac-b^2) \left\{ \frac{\sqrt{q}}{2a} \left[b^2 \sqrt{\frac{1}{(4ac-b^2)c}} + \sqrt{4a - \frac{b^2}{c}} \right] - [\Delta h] \right\}^2 \right\}^{\frac{1}{2}} \right\} + h \cos(\alpha + \varphi_1) \left[\cos \varphi_1 \cos \frac{1}{2} \left(90^\circ - \arccos \frac{\sqrt{R^2 - 0,25d^2}}{R} - \beta + \varphi_1 + \varphi_2 \right) \right]^{-1} \right\} \cos \psi. \quad (5)$$

Bu ifodadan ko‘rinib turibdiki ψ oshishi bitta qatorda joylashgan disklar

orasidagi ko‘ndalang masofani kamayishiga olib keladi.

Qurilmaning sferik diskлari orasidagi bo‘ylama masofa S ni uning birinchi va ikkinchi qatorda joylashgan sferik diskлari orasiga tuproq tиqilmasligi shartidan kelib chiqib, quyidagi ifoda bo‘yicha aniqlaymiz

$$\begin{aligned}
 S \geq 2 \sqrt{\frac{h}{\cos \beta} \left(d - \frac{h}{\cos \beta} \right)} \cos \alpha + \left\{ \left\{ d \sin \arctg \left(\frac{\tg \beta}{\cos \alpha} \right) + \right. \right. \\
 + h \cos(\alpha + \varphi_1) \left[\cos \varphi_1 \cos \frac{1}{2} \times \right. \\
 \times \left. \left. \left(90^\circ - \arccos \frac{\sqrt{R^2 - (0,5d)^2}}{R} - \beta + \varphi_1 + \varphi_2 \right) \right]^{-1} - 2 \times \right. \\
 \left. \left. \times \left(0,5d - \frac{h}{\cos \beta} \right) \sin \beta \cos \alpha \right\} \tg(\alpha + \varphi_1) + \left(0,5d - \frac{h}{\cos \beta} \right) \sin \beta \tg \alpha. \quad (6)
 \end{aligned}$$

$h=12$ cm, $d=51$ cm, $\beta=15^\circ$, $\alpha=30^\circ$, $\varphi_1=40^\circ$, $[\Delta h]=3$ cm qabul qilinib, (3), (4) va (6) ifodalar bo‘yicha o‘tkazilgan hisoblashlar qurilmaning birinchi va ikkinchi qatorida joylashgan sferik diskлari orasidagi ko‘ndalang masofa kamida 11 cm, bitta qatorda joylashgan diskлar orasidagi masofa ko‘pi bilan 22 cm, sferik diskлar orasidagi bo‘ylama masofa kamida 60 cm bo‘lishi lozimligini ko‘rsatdi.

Qurilmaning parallelogramm ramasi orqangi ko‘ndalang brusining uzunligi, L_1 ni 2-rasmdagi sxemaga asosan quyidagi ifoda bo‘yicha aniqlaymiz

$$L_1 = 0,5(B_{\max} - l), \quad (7)$$

bunda B_{\max} – qurilmaning maksimal qamrash kengligi, m.

$B_{\max}=300$ cm qabul qilib va l ning yuqorida aniqlangan qiymatini ($l=30$ cm) qo‘yib, (7) ifoda bo‘yicha qurilma parallelogramm ramasi orqangi ko‘ndalang brusining uzunligi 135 cm bo‘lishi lozimligini aniqlaymiz.

Qurilmaning parallelogramm ramasi oldingi ko‘ndalang brusining uzunligini 2-rasmdagi sxemaga muvofiq quyidagi ifoda bo‘yicha aniqlaymiz

$$L_2 = L_1 - b_1 = 0,5(B_{\max} - l) - b_1. \quad (8)$$

Ushbu ifodaga L_1 , l va b_1 ning yuqorida aniqlangan qiymatlarini qo‘ysak, qurilma parallelogramm ramasi oldingi ko‘ndalang brusining uzunligi 124 cm bo‘lish kerakligi kelib chiqadi.

Qurilmaning parallelogramm ramasining o‘rnatilish burchagi ψ ni 4-rasmda tasvirlangan sxemadan foydalanib aniqlaymiz.

Tasvirlangan sxema bo‘yicha quyidagi ifodaga ega bo‘lamiz


$$L_1(1 - \cos \psi) = 0,5(B_{\max} - B_{\min}), \quad (9)$$

bunda B_{\min} – qurilmaning minimal qamrash kengligi, m.

(9) ifodani ψ ga nisbatan yechib quyidagiga ega bo‘lamiz

$$\psi = \arccos \left(1 - \frac{B_{\max} - B_{\min}}{2L_1} \right) \quad (10)$$

Asosiy ramaga nisbatan parallelogramm ramalarni o'rnatilish burchagi ψ ortishi bilan bitta qotorda joylashgan sferik disklar orasidagi masofa qisqaradi





a - qamrov kengligi 3,0 m bo'lgan holat; b - qamrov kengligi 2,5 m bo'lgan holat

4-rasm. Qurilma parallelogramm ramasining burilish burchagini aniqlashga doir sxema

$$a_2 = a_1 \cos \psi \quad (11)$$

(10) ifodaga $B_{max}=300$ cm, $B_{min}=250$ cm va $L_1=135$ cm qiymatlarni qo'yib, qurilmaning parallelogramm ramalarini asosiy ramaga nisbatan o'rnatilish burchagi $35^{\circ}30'$ bo'lishi lozimligini aniqlaymiz. Bunda (11) ifodaga asosan bitta qotorda joylashgan disklar orasidagi ko'ndalang masofa 18 cm ga teng bo'ladi.

Dissertatsiyaning **"Tajribaviy tadqiqotlarni o'tkazish usullari va natijalari"** deb nomlangan uchinchi bobida, intensiv bog'larning turli kenglikdagi qator oralariga ishlov beradigan qurilmaning ish ko'rsatkichlariga qurilmaning tayanch tekisligidan uni osish moslamasini pastki taqish nuqtasigacha bo'lgan tik masofa, sferik diskli ish organlar orasidagi ko'ndalang masofaning ta'sirini o'rganish bo'yicha o'tkazilgan bir va ko'p omilli tajribalarning natijalari keltirilgan.



1 va 2-agregat harakat tezligi mos ravishda, 6 va 9 km/h


5-rasm. Qurilmaning ishlov berish chuqurligi ($M_{0,r}$), uning o'rtacha kvadratik chetlanishi ($\pm\sigma$) va begona o'tlarning yo'qotilish darajasi (N_0) hamda tortishga solishtirma qarshilik (R_s) ni uning tayanch tekisligidan osish qurilmasining pastki taqish nuqtalarigacha bo'lgan tik masofa (H_0)ga bog'liq ravishda o'zgarish grafiklari

Qurilmaning ish ko'rsatkichlariga uning tayanch tekisligidan pastki taqish

nuqtalarigacha bo‘lgan tik masofaning ta’sirini o‘rganish bo‘yicha quyidagilarni ta’kidlash mumkin: qurilmaning tayanch tekisligidan osish moslamasini pastki taqish nuqtasigacha bo‘lgan tik masofa ortishi bilan ishlov berish chiqurligi ortib bordi, uning o‘rtacha kvadratik chetlanishi esa kamaydi (5-rasm), begona o‘tlarni yo‘qotilish darajasi va tortishga qarshilik ortdi.

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, sferik diskli ish organlar belgilangan chiqurlikka botishi, shu chiqurlikda barqaror yurishi, begona o‘tlarni yo‘qotilish darajasi maksimal hamda qurilmaning tortishga solishtirma qarshiligi minimal bo‘lishi uchun uning tayanch tekisligidan osish qurilmasini pastki taqish nuqtalarigacha bo‘lgan tik masofa kamida 50 cm bo‘lishi kerak.

Qurilmaning ish ko‘rsatkichlariga bitta qatorda joylashgan ish organlari orasidagi ko‘ndalang masofaning ta’sirini aniqlash uchun bu masofa 18 cm dan 30 cm gacha o‘zgartirilib eksperimental tadqiqotlar o‘tkazildi (6-rasm).



1 va 2 – agregat harakat tezligi, mos ravishda 6 va 9 km/h

6-rasm. Tuproqning uvalanish darajasi ($F_{<25}$), begona o‘tlarni yo‘qotilish darajasi (N_0) va tortishga solishtirma qarshilik (R_s) ni qurilmaning bitta qatorda joylashgan sferik disklari orasidagi ko‘ndalang masofa (a_1) ga bog‘liq ravishda o‘zgarish grafiklari


Keltirilgan ma’lumotlar tahlilidan shuni aytish mumkinki, bitta qatorda joylashgan sferik disklar orasidagi ko‘ndalang masofa 18 cm dan 26 cm gacha o‘zgartirilganda tuproqning uvalanish sifati yomonlashuvi kuzatildi. O‘lchami 25 mm kichik bo‘lgan tuproq fraksiyalari miqdori kamayib, yirik kesaklar miqdori ortib, aggregatning har ikkala harakat tezliklarida, mos ravishda, kamaydi. Ko‘ndalang masofani 26 cm dan 30 cm gacha ortirilganda esa tuproqning uvalanish sifati keskin yomonlashdi. Buni quyidagicha izohlash mumkin, sferik disklar orasidagi ko‘ndalang masofa ortganda ikkinchi qatorda joylashgan disklar tomonidan ishlov berilgan palaxsalarining ko‘ndalang kesim yuzi ortadi va natijada tuproqdan katta kesaklar ko‘chadi.

Agregatning harakat tezligi 6 km/h dan 9 km/h ga ortganda begona o‘tlarni yo‘qotilish darajasi kamaygan. Buni aggregatning tezligi ortib borgan sari intensiv bog‘ qator oralariga ishlov beradigan qurilmaning sferik disklarini tuproqqa botish chiqurligi kamaygani bilan izohlash mumkin. Sferik disklar orasidagi ko‘ndalang masofa oshishi bilan qurilmaning tortishga solishtirma qarshiligi botiq parobola qonuniyati bo‘yicha o‘zgardi. Ushbu masofa 18 cm dan 22 cm gacha o‘zgartirilganda aggregatning 6 va 9 km/h harakat tezliklarida qurilmaning tortishga solishtirma qarshiligi, mos ravishda 2641 N/m dan 2352 N/m gacha, 2803 N/m dan 2531 N/m gacha kamaydi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o‘lchami 25 mm dan kichik tuproq fraksiyalari miqdori va begona o‘tlarni yo‘qotilish darajasi maksimal, tortishga

solishtirma qarshiligi minimal qiymatlarda bo‘lishi uchun qurilmaning bitta qatorda joylashgan sferik disklari orasidagi ko‘ndalang masofa ko‘pi bilan 22 cm bo‘lishi lozim ekan.

Qurilmaning ish ko‘rsatkichlariga sferik diskning harakat yo‘nalishiga nisbatan o‘rnatilish burchagini ta’sirini aniqlash uchun sferik diskning harakat yo‘nalishiga nisbatan o‘rnatilish burchagi 5° interval bilan 20° dan 35° gacha o‘zgartirilib tajribaviy tadqiqotlar o‘tkazildi (7-rasm).




1 va 2 – agregat harakat tezligi mos ravishda 6 va 9 km/h

7-rasm. Tuproqning uvalanish darajasi ($F_{<25}$), begona o‘tlarning yo‘qotilish darajasi (N_0) va tortishga solishtirma qarshilik (R_s)ni qurilma sferik diskining harakat yo‘nalishiga nisbatan o‘rnatilish burchagi (α) ga bog‘liq ravishda o‘zgarish grafiklari

Keltirilgan ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, qurilma sferik diskining harakat yo‘nalishiga nisbatan o‘rnatilish burchagi 20° dan 30° gacha oshganda o‘lchami 25 mm dan kichik bo‘lgan tuproq fraksiyalari miqdori keskin ortdi, 30° dan 35° gacha oshganda esa kam o‘zgardi. Buni qurilma sferik diskining harakat yo‘nalishiga nisbatan o‘rnatilish burchagini oshishi ular tomonidan kesib olinayotgan tuproq palaxsalari ko‘ndalang kesimlari yuzalarining ortishi va ularni tuproqqa ko‘rsatadigan ta’siri jadallahishi bilan izohlash mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki, qurilma tuproqni yaxshi uvalashi, o‘tlarni yo‘qotilish darajasi agrotexnik talablar darajasida va tortishga solishtirma qarshik minimal darajada bo‘lishi uchun sferik diskining harakat yo‘nalishiga nisbatan o‘rnatilish burchagi $25-30^\circ$ oralig‘ida bo‘lishi lozim.

Qurilmaning ish ko‘rsatkichlariga sferik diskarning tikka nisbatan o‘rnatilish burchagini ta’sirini aniqlash uchun bu burchak 5° interval bilan 10° dan 25° gacha o‘zgartirilib tajribalar o‘tkazildi.



1 va 2 – agregat harakat tezligi mos ravishda 6,0 va 9,0 km/h

8-rasm. Tuproqning uvalanish darajasi ($F_{<25}$), begona o‘tlarning yo‘qotilish darajasi (N_0) va tortishga solishtirma qarshilik (R_s) ni qurilma sferik diskining tikka nisbatan o‘rnatilish burchagi (β) ga bog‘liq ravishda o‘zgarish grafiklari

Quyida tasvirlangan grafiklardan ko‘rinib turibdiki, qurilma sferik diskarning tikka nisbatan o‘rnatilish burchagi 10° dan 25° gacha ortganda o‘lchami 25 mm dan kichik bo‘lgan tuproq fraksiyalari miqdori aggregatning harikkala harakat tezliklarida kamayib bordi (8-rasm) va ushbu burchak 25° ga teng

bo‘lganda, tuproqning uvalanish darjasini agrotexnik talablar darajasidan kam bo‘ldi. Qurilma sferik diskini tikka nisbatan o‘rnatilish burchagi 10° dan 25° gacha oshganda, begona o‘tlarni yo‘qotilish darjasini uning tortishga solishtirma qarshiligi aggregatning har ikkala harakat tezliklarida kamayib bordi. Buni ish organlarning tuproqqa botish va uni kesish burchaklari hamda tuproqning ular ish sirtlari bo‘ylab ko‘tarilish balandliklarini kamayishi va ularning tuproqqa ta’sir darajasini pasayishi bilan izohlash mumkin.

Qurilma sferik diskini ish organlari parametrlarining maqbul qiymatlari aniqlash maqsadida Xartli-4 rejsi bo‘yicha ko‘p omilli tajribalar o‘tkazildi. Bunda omillar quyidagicha shartli belgildi: X_1 – sferik diskning harakat yo‘nalishiga nisbatan o‘rnatilish burchagi, X_2 – sferik diskning tikka nisbatan o‘rnatilish burchagi, X_3 – bitta qatorda joylashgan sferik disklar orasidagi ko‘ndalang masofa va X_4 – aggregatning harakat tezligi.

Tajriba natijalariga ishlov berilib, baholash mezonlarini adekvat ifodalaydigan quyidagi regressiya tenglamalari olindi:

tuproqning uvalanish darjasini bo‘yicha, (%):

$$Y_1 = 84,209 + 1,226X_1 - 1,625X_2 - 1,602X_3 + 2,002X_4 - 0,455X_1^2 + 0,357X_1X_2 + 0,882X_1X_3 - 0,318X_1X_4 - 0,978X_2^2 + 0,506X_2X_3 - 0,844X_2X_4 - 0,394X_3X_4 - 1,251X_4^2; \quad (12)$$

begona o‘tlarning yo‘qotilish darjasini bo‘yicha, (%):

$$Y_2 = 91,908 + 1,441X_1 - 2,399X_2 - 1,948X_3 - 2,750X_4 - 1,051X_1^2 + 0,731X_1X_2 + 0,506X_1X_3 - 0,581X_1X_4 - 1,175X_2^2 + 0,996X_2X_3 - 0,769X_2X_4 - 0,800X_3^2 - 0,701X_4^2; \quad (13)$$

qurilmaning tortishga solishtirma qarshiligi bo‘yicha, (N/m):

$$Y_3 = 2237,634 + 178,030X_1 - 140,650X_2 - 51,233X_3 + 254,867X_4 + 36,298X_1^2 - 7,962X_1X_2 + 23,679X_1X_3 - 10,196X_1X_4 + 13,549X_2^2 + 39,038X_2X_3 - 16,538X_2X_4 + 231,899X_3^2 - 31,446X_3X_4 + 196,199X_4^2. \quad (14)$$

Bu regressiya tenglamalari birgalikda yechilib qurilma $6\text{-}9$ km/h ish tezliklarda kam energiya sarflagan holda talab darajasidagi ish sifatini ta’minlashi uchun sferik disklarining harakat yo‘nalishiga nisbatan o‘rnatilish burchagi $26\text{-}27^{\circ}$, tikka nisbatan o‘rnatilish burchagi esa $12\text{-}17^{\circ}$ oralig‘ida va ular orasidagi ko‘ndalang masofa 21 cm bo‘lishi lozimligi aniqlandi.

Dissertatsiyaning “**Intensiv bog‘larning turli kenglikdagi qator oralariga ishlov beradigan qurilmaning tajriba nusxasi va uning xo‘jalik sinovlarining natijalari hamda texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari**” deb nomlangan to‘rtinchi bobida qurilma tajriba nusxasining texnik tavsifi, asosiy parametrlari, xo‘jalik sinovlarining natijalari va undan foydalanishning samaradorlik ko‘rsatkichlari keltirilgan.

Sinovlarda qurilma belgilangan texnologik jarayonni ishonchli bajardi va uning ish ko‘rsatkichlariga qo‘yilgan agrotexnika talablarga to‘liq mos keldi.

Olib borilgan texnik-iqtisodiy hisoblashlar shuni ko‘rsatdiki, ishlab chiqilgan qurilmadan qamrash kengligi $2,5$ m holatida, qator orasi $3,5 \times 1,5$ m sxemada tashkil etilgan intensiv bog‘ qator oralariga ishlov berilganda bir gektarga sarflanadigan eksplyatatsion xarajatlar $16,4$ foiz va mehnat sarfi $9,1$ foizga, qamrash kengligi

3,0 m holatida, qator orasi 4,0x2 m sxemada tashkil etilgan intensiv bog‘ga ishlov berilganda bir gektarga sarflanadigan eksplyatatsion xarajatlar 37,5 foiz va mehnat sarfi 10,4 foizga kamaydii. Bunda bitta qurilmadan olinadigan iqtisodiy samara, mos ravishda, 22947700,1 va 54211740,2 UZSni tashkil etdi.

XULOSA

“Intensiv bog‘larning turli kenglikdagi qator oralariga ishlov beradigan qurilma parametrlarini asoslash” mavzusidagi falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasi asosida quydagi xulosalar taqdim etiladi:

1. Intensiv bog‘ qator oralariga ishlov berishda qo‘llaniladigan qurilma va mashinalar konstruksiyalari va ularning texnologik ish jarayonlarini takomillashtirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarni o‘rganish natijalari shuni ko‘rsatadiki, intensiv bog‘larning turli kenglikdagi qator oralariga ishlov beradigan diskli qurilmadan foydalanish respublikadagi bog‘dorchilikka ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklarida ish sifati va unimini oshirish imkonini beradi.

2. Intensiv bog‘larning turli kenglikdagi qator oralariga kam energiya sarflab agrotexnik talablar darajasida ishlov berish uchun qamrov kengligi o‘zgaradigan diskli qurilmalardan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

3. Nazariy tadqiqotlar natijalariga asosan, qurilmaning sferik disklarini diametri kamida 49,6 cm, ishchi sirtining egrilik radiusi 60 cm, harakat yo‘nalishi va tikka nisbatan o‘rnatilish burchaklari, mos ravishda, 25-35° va 15-20° oralig‘ida, birinchi va ikkinchi qatorida joylashgan sferik disklar orasidagi ko‘ndalang masofa kamida 11 cm, bitta qatorda joylashgan disklar orasidagi masofa ko‘pi bilan 22 cm, sferik disklar orasidagi bo‘ylama masofa kamida 60 cm, oldingi qator markazidagi sferik disklar orasidagi masofa 52 cm va o‘qyoysimon panjaning qamrash kengligi 30 cm bo‘lishi lozim.

4. Intensiv bog‘larning turli kenglikdagi qator oralariga talab darajasida ishlov berish qurilmaning qamrash kengligi $B_{max}=300$ cm va $B_{min}=250$ cm bo‘lganida, parallelogramm ramaning orqangi ko‘ndalang brusining uzunligi 135 cm, oldingi ko‘ndalang brusining uzunligi 124 cm, uning asosiy ramaga nisbatan o‘rnatilish burchagi 35°30' va bitta qatorda joylashgan disklar orasidagi ko‘ndalang masofa 18 cm ga teng bo‘lganda ta’minlanadi.

5. Agregatning 6-9 km/h harakat tezligida qurilma kam energiya sarflab, talab darajasidagi ish sifatini ta’minlashiga uning sferik disklari harakat yo‘nalishiga nisbatan 26-27°, tikka nisbatan 12-17° burchak ostida o‘rnatilib, ular orasidagi ko‘ndalang masofa 21 cm ga teng bo‘lganda erishiladi.

6. Intensiv bog‘larning turli kenglikdagi qator oralariga ishlov berishda diskli qurilmadan qamrash kengligi 2,5 va 3,0 m holatda 3,5x1,5 m va 4,0x2,0 m sxemada tashkil etilgan intensiv bog‘ qator oralariga ishlov berilganda bir gektar yerga sarflanadigan eksplyatatsion xarajatlar va mehnat sarfi, mos ravishda, 16,4 va 37,5 foiz hamda 9,1 va 10,4 foizga kamayishi hisobiga bitta qurilmadan olinadigan iqtisodiy samara, mos ravishda, 22947700,1 va 54211740,2 UZS tashkil etadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.08/2025.27.12.Т.13.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОМ
ИНСТИТУТЕ МЕХАНИЗАЦИИ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА**
**НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ИНСТИТУТ
МЕХАНИЗАЦИИ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА**

АМАНОВ АЗАМАТ КУШНАЗАРОВИЧ

**ОБОСНОВАНИЕ ПАРАМЕТРОВ УСТРОЙСТВА ДЛЯ ОБРАБОТКИ
МЕЖДУРЯДИЙ ИНТЕНСИВНЫХ САДОВ РАЗЛИЧНОЙ ШИРИНЫ**

**05.07.01 – Сельскохозяйственные и мелиоративные машины. Механизация
сельскохозяйственных и мелиоративных работ**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Гульбаҳор – 2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерство высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за В2024.3.PhD/Г4930.

Диссертация выполнена в Научно-исследовательском институте механизации сельского хозяйства.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещен на веб-странице по адресу: www.qxmiti.uz и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:

Имомкулов Кутбиддин Бокижонович
доктор технических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Толыбаев Алпысбай Ержанбаевич
доктор технических наук, старший
научный сотрудник

Ишмуродов Шухрат Улугбердиевич
PhD по технических наукам, доцент

Ведущая организация:

Гулистанский государственный университет

Защита диссертации состоится 29 01 2026 г. в 10⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc.08/2025.27.12.T.13.01 при Научно-исследовательском институте механизации сельского хозяйства (Адрес: 110800, Ташкентская область, Янгиюльский район, г. Гульбахор, ул. Самаркандская, 41. Тел.: (+99855) 903-14-18, e-mail: qabulxona@qxmiti.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Научно-исследовательского института механизации сельского хозяйства (регистрационный номер 524. (Адрес: 110800, Ташкентская область, Янгиюльский район, г. Гульбахор, ул. Самаркандская, 41. Тел.: (+99855) 903-14-18, e-mail: qabulxona@qxmiti.uz).

Автореферат диссертации разослан «13 » 01 2026 года.
(Протокол рассылки № 71 от «13 » 01 2026 года).


А. Тухтакузиев

Председатель научного совета по присуждению ученых степеней, доктор технических наук, профессор


Б.П. Артибаев

Ученый секретарь научного совета по присуждению ученых степеней, PhD по техническим наукам, старший научный сотрудник


Р.Р. Худайкулиев

Председатель научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, кандидат технических наук, старший научный сотрудник



ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире приоритетной задачей, наряду созданием фруктовых садов, считается и получение из них высоких урожаев, разработка и внедрение в садоводстве энерго-и ресурсосберегающих, высокопроизводительных, а также качественно обрабатывающих почву машины и орудий, На основании данных Организации Объединенных Наций если население мира составила в 1990 году 5,3 миллиарда, а в 2015 году 7,3 миллиарда человека, то в настоящее время оно составляет 7,8 миллиарда человека, к 2050 году ожидается увеличение до 9,7 миллиарда, а к 2100 году - до 11,2 миллиарда человека¹. Поэтому обеспечение потребности населения мира экологически чистыми фруктовыми продуктами является одной из актуальных задач, стоящих перед странами.

В мире ведущее место занимает создание конструкций энерго-и ресурсосберегающих, высокопроизводительных и эффективных машин и устройств для обработки межурядий садов, проведение широкомасштабных научно-исследовательских работ, а также производство и применение созданных машин и устройств в отрасли. Поэтому проведение целенаправленных научно-исследовательских работ по разработке энерго-и ресурсосберегающих, высокопроизводительных машин и орудий для межурядной обработки интенсивных садов в почвенно-климатических условиях республики, обоснование технологического процесса и оптимальных параметров является одной из актуальных задач. В частности, при обработке межурядий садов большое значение придается разработке устройств с оптимальными параметрами, обеспечивающими качественное выполнение всех технологических процессов с минимальными затратами труда и ресурсов.

В сельскохозяйственном производстве нашей республики уделяется особое внимание снижению затрат труда и энергии, экономии ресурсов, выращиванию сельскохозяйственных культур на основе передовых технологий, разработке и применению высокопроизводительных сельскохозяйственных машин. В Стратегии развития сельского хозяйства Республики Узбекистан на 2020-2030 годы, в частности, определены такие задачи, как «...рациональное использование земельных и водных ресурсов, повышение производительности труда в фермерских хозяйствах, улучшение качества продукции»². При выполнении вышеуказанных задач, в частности, особенно важно является разработка устройств для обработки межурядий интенсивных садов различной ширины с обоснованными технологическими и конструктивными параметрами.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит

¹ <https://openknowledge.fao.org/server/api/core/bitsstreams/9a0fcfa06-5c5b-4bd5-89eb-5dbec0f27274/content>.

² Указ Президента Республики Узбекистан от № УП-5853 от 23 октября 2019 года «Об утверждении стратегия сельского хозяйства Республики Узбекистан на 2020–2030 годы».

